

**ANDIJON VILOYATIDA YASHOVCHI BOLALARDA SUT TISHLARDA  
SURUNKALI FIBRO'Z PULPIT KASALLIGI DINAMIKASINI O'RGANISH.**

*Ismoilov Bahodir Uraimovich*

*ortopedik stomatologiya va ortodontiya kafedrasi assistenti*

*Andijon davlat tibbiyot instituti*

*Andijon shahri*

**Tadqiqotning dolzarbligi.** Bolalarning sut tishlaridagi surunkali fibro'z pulpiti samarali davolash zamonaviy amaliy stomatologiyaning dolzarb muammosidir. Ushbu muammoning eng muhim jihatni Andijon viloyatida yashovchi bolalar sut tishlar anatomik shakli va funksional qiymatini tiklashdir. Shu bilan birga, chaynash tishlarining kontakt yuzalaridagi karioz kovaklarini tashxislash uchun ko'plab usullar ishlab chiqilganiga qaramay, ularning ma'lumotlar mazmuni va mavjudligi ushbu muammoni hal qilingan deb hisoblashimizga imkon bermaydi.

**Ushbu tadqiqotning maqsadi:** Andijon viloyatida yashovchi bolalarning sut tishlarida kuzatiladigan surunkali fibro'z pulpiti erta tashxislab samarali davolash va endogen biologik faol moddalarni o'z ichiga olgan holda, o'smirlarda stomatologik kasalliklarning kompleks profilaktikasi samaradorligini oshirish.

**Materialarni o'rganish usullari.** Qo'yilgan maqsadlarni amalga oshirish uchun tekshiruvi 2024 yil aprel va may oyigacha qabulimizga kelgan bolalarning tibbiy hujjatlari o'rganildi. Bundan tashqari andijon viloyatida maktab o'quvchilari o'ttasida o'tkazilayotgan an'anaviy stomatologik profilaktika tadbirlarining samaradorligini baholash.

**Natijalar va muhokamalar.** Joriy yilning boshida biz bolalarning tibbiy hujjatlari o'rganildi va surunkali fibro'z pulpitning intensivligini o'rgandik.

O'rganishlarimiz davomida jami 400 nafar bolalarning 330 nafari surunkali fibro'z pulpiti bilan murojat qilgan. O'g'il bolalarda surunkali fibro'z pulpiti va qiz bolalarga qaraganda ko'proq ya'ni 275 nafar o'g'il bolalarda 55 nafar qiz bolalarda kuzatilgan. Surunkali fibro'z pulpiti o'sish dinamikasi 2018 yilda sezilarli farq bo'lsa ham, statistik jihatdan farq qilmadi: mos ravishda  $0,3 \pm 0,1$  va  $0,5 \pm 0,1$  ( $t=1,6$ ,  $p>0,05$ ). Surunkali fibro'z pulpiti intensivligi  $2,6 \pm 0,3$  ni tashkil etdi.

Tibbiy tekshiruvlarda o'tkir diffuz pulpiti etiologiya kelib chiqish sablari o'g'iz bo'shlig'i gigiyenasi va qolgan tishlarining xolati tishlov turlari o'rganilib, ma'lumotlarga asoslanib retrospektiv tahlili va 2023 yilda tug'ilgan bolalarning so'rovi asosida an'anaviy profilaktika choralarini bilan tish o'tkir diffuz pulpiting o'sishi yiliga o'rtacha 0,5 dan kamaymasligi aniqlandi. Ya'ni har ikkinchi bolada har yili o'tkir diffuz pulpitudan ta'sirlangan bitta tish bor.

**Xulosa:** Jami 400 nafar bolalarning 330 nafari surunkali fibro'z pulpiti kasalligi bilan murojat qildi. ularning 175 nafari o'g'il bola 55 nafari qiz bolalarni tashkil qildi. Bolalarning yoshi 2,5 yoshidan 9 yoshgacha. Kuzatilgan 330 nafar bolalarda surunkali fibro'z pulpiti kasalligini sut tishlov davriga ya'ni 90% ni tashkil qildi. Qolgan 10 % almashinuv prikus davriga mos keldi. Xulosa qilib aytganimizda sut va almashinuv tishlov davrida surunkali fibro'z pulpiti aniqlash

va davolash orqali tishning anatomik shaklini tiklash va bu orqali doimiy tishlovni to'g'ri shakllanishiga zamin yaratadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Atakhonov Azizbek Abdisalamovich. (2023). OBSERVATION OF INDICATORS OF PROSTHETIC STOMATITIS IN PATIENTS USING PROSTHESES MADE OF ETHACRYL AND FTOROX. International Multidisciplinary Journal for Research & Development, 10(11).
2. Atakanov Azizbek Abdisalomovich. (2023). AESTHETIC REQUIREMENTS IN CHOOSING ARTIFICIAL TEETH. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 10(11), 98–100.
3. А.А. Атаконов. (2023). Frequency of Occurrence and Clinical Manifestations of Stomatitis in Patients After Acrylic Prosthetics. Eurasian Medical Research Periodical, 2023/04/05, Том 19, Номер 14 Страницы 1-3.
4. Ataxanov Azizbek Abdusalomovich.(2022). BOLALARDA OG'IZ BO'ZISH SHILLIQ QATLAMI KASALLIKLARI TUZILISHINI YOSH BO'YICHA XUSUSIYATLARI. Евразийский журнал медицинских и естественных наук. Том 2 Номер 3 Страницы 77-80 .
5. Atakhonov Azizbek Abdisalamovich.(2024). International Multidisciplinary Journal for Research & Development. Том 11. Номер 04 Страницы 260-262.
6. Azizbek Ataxanov. (2023) . ANDIJON VILOYATIDA YASHOVCHI BOLALARDA GINGIVITNING TARQALISHINI O'RGANISH. Евразийский журнал медицинских и естественных наук. Том 3 Номер 4 Страницы 88-91.